

TEMIR YO'L TRANSPORTIDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING XORIJIY TAJRIBASI

Alixonov Bexzod Nizamidinovich

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlashni huquqiy tartibga solishning xorijiy tajribasi tizimli va qiyosiy-huquqiy tahlil asosida o'rganiladi. Xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlarning normativ-huquqiy hujjatlari, institutsional mexanizmlari hamda ma'muriy-amaliy chora-tadbirlari misolida transport xavfsizligini ta'minlashning zamonaviy yondashuvlari yoritiladi. Maqolada raqamli texnologiyalar va intellektual boshqaruv tizimlarining jamoat xavfsizligini mustahkamlashdagi o'rni ochib beriladi hamda milliy qonunchilikni xalqaro normalar bilan uyg'unlashtirish zarurati ilmiy jihatdan asoslanadi. Tadqiqot natijalari temir yo'l transportida xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirishga doir nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: temir yo'l transporti, jamoat xavfsizligi, huquqiy tartibga solish, xorijiy tajriba, xalqaro normalar, ma'muriy-huquqiy mexanizm, raqamli texnologiyalar.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ

Алихонов Бехзод Низамидинович

Независимый исследователь, Ташкентский государственный юридический университет

Аннотация

В данной статье систематически и с позиций сравнительно-правового анализа изучается зарубежный опыт правового регулирования обеспечения общественной безопасности на железнодорожном транспорте. Рассматриваются современные подходы к обеспечению безопасности транспортных средств на примере нормативно-правовых актов международных организаций и развитых стран, институциональных механизмов и административно-практических мер. Освещается роль цифровых технологий и интеллектуальных систем управления в укреплении общественной безопасности, а также научно обоснована необходимость гармонизации национального законодательства с международными нормами. Результаты исследования служат для разработки теоретических выводов и практических рекомендаций по совершенствованию механизмов обеспечения безопасности на железнодорожном транспорте.

Ключевые слова: железнодорожный транспорт, общественная безопасность, правовое регулирование, зарубежный опыт, международные нормы, административно-правовой механизм, цифровые технологии.

**FOREIGN EXPERIENCE OF LEGAL REGULATION OF ENSURING PUBLIC SAFETY IN RAILWAY
TRANSPORT****Alikhonov Bekhzod Nizamidinovich**

Independent Researcher, Tashkent State University of Law

Abstract

This article systematically examines the foreign experience of legal regulation of public safety in railway transport based on a comparative-legal analysis. Modern approaches to ensuring transport safety are highlighted using examples of normative legal acts of international organizations and developed countries, institutional mechanisms, and administrative-practical measures. The role of digital technologies and intelligent control systems in strengthening public safety is revealed, and the necessity of harmonizing national legislation with international standards is scientifically substantiated. The results of the study contribute to the development of theoretical conclusions and practical recommendations for improving safety mechanisms in railway transport.

Keywords: Railway transport, public safety, legal regulation, foreign experience, international standards, administrative-legal mechanism, digital technologies.

Globalashuv zharayonlarda temir yo'l transporti sohasida xalqaro hamkorlikning kengayishi transport xavfsizligini ta'minlash sohasidagi munosabatlarni samarali huquqiy tartibga solish uchun xalqaro va milliy huquq tizimlarining o'zaro hamkorligini taqozo etadi. Bu, birinchidan, O'zbekiston xalqaro normalarga va respublika tomonidan imzolangan bitimlarga rioya etish majburiyatini o'z zimmasiga olganligidan kelib chiqadi. Ikkinchidan, milliy transport qonunchiligi shakllanish jarayonida ushbu sohadagi rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribasi inobatga olinishi lozim.

O'zbekistonning global transport-logistika tarmoqlariga integratsiyalashuvini chuqurlashtirish hamda milliy transport tizimining, shu jumladan tranzit salohiyatining oshirilishi zamonaviy sharoitda rivojlanishning ustuvor vazifasiga aylanmoqda [1]. Ushbu sohadagi eng muhim yo'nalishlardan biri milliy normativ-huquqiy bazani xalqaro hujjatlar, BMT, SHHT, MDH, Yevroosiyo iqtisodiy hamkorlik tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlarning hujjatlari bilan uyg'unlashtirishdan iboratdir. Bu esa temir yo'l transporti sohasidagi milliy qonunchilikni takomillashtirishni, uni xalqaro tamoyillar va normalarga muvofiqlashtirishni talab etadi. Shu tariqa, O'zbekiston Respublikasining "Temir yo'l transporti to'g'risida"gi Qonunining [1] 2-moddasida shunday deyiladi: "Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida temir yo'l transporti to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan qoidalardan farq qiluvchi qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi."

BMT Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi Ichki transport bo'yicha qo'mitasi (BMT YIK ITQ) ekspertlarining fikricha, ichki transportning xavfsiz, samarali va ekologik toza rivojlanishini ta'minlash kamida 58 ta xalqaro konvensiyalar, bitimlar va BMTning boshqa huquqiy hujjatlarini amalga oshirishga qaratilgan. Mazkur hujjatlar transport, shu jumladan temir yo'l transportining faoliyat yuritish xavfsizligining xalqaro-huquqiy rejimini belgilaydi [2]. Ko'rib chiqilayotgan sohada xorijiy amaliyot temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlashda qo'llaniladigan shakllar, usullar va vositalarning xilma-xilligini ko'rsatadi. Shu munosabat bilan biz "bir mamlakatda mavjud bo'lgan xavfsizlikni ta'minlash usullari muayyan holatda boshqa mamlakatda muqobil yechim bo'lishi mumkin, chunki temir yo'l

transportidagi xavf va tahdidlar o'xshash xarakterga ega" degan yondashuvni to'liq qo'llab-quvvatlaymiz.

Xalqaro temir yo'l ittifoqi (XTYI) doirasida Temir yo'l tashishlari to'g'risidagi xalqaro konvensiya (COTIF) hamda bir qator boshqa bitimlar imzolangan. Ular xavfsizlik masalalarini tartibga soladi, texnik talablarni standartlashtiradi va xalqaro tashishlar vaqtida o'zaro hamkorlik qoidalarini belgilaydi hamda turli mamlakatlarda xavfsizlikka yagona yondashuvni ta'minlaydi [8].

Yo'lovchilar va yuklar xavfsizligini ta'minlash temir yo'lning barcha tashkiliy tuzilmalarining majburiy tarkibiy qismi va eng muhim vazifasidir. Ushbu murakkab va ko'p qirrali muammo maqsadli hamda samarali tarzda hal etilishi lozim. Biz N.V. Mishina fikrini qo'llab-quvvatlaymiz, u shunday deydi: "Rivojlangan mamlakatlar temir yo'llarini isloh qilish tajribasini o'rganish muhim ahamiyatga ega, biroq har bir mamlakatning davlat, temir yo'l va uning xizmatlaridan foydalanuvchilar o'rtasidagi o'ziga xos, takrorlanmas o'z yo'li mavjudligini unutmaslik kerak, shu bois to'plangan nihoyatda boy tajribani yanada chuqurroq o'rganish zarur" [5].

Bizning tadqiqotimiz uchun eng katta temir yo'l tarmog'iga ega va yuqori tezlikdagi temir yo'l liniyalarini jadal qurayotgan davlat sifatida **Xitoy** tajribasi alohida qiziqish uyg'otadi. Bu yerda 2023-yil holatiga ko'ra temir yo'l magistrallarining uzunligi 150 000 kilometrdan oshgan. Poyezdlarni boshqarishning milliy tizimi (CTCS) faoliyat yuritadi, u eng so'nggi avtopilot va intellektual dinamik dispetcherlik boshqaruvi texnologiyalaridan foydalanadi. Ushbu tizimlarning asosida Katta ma'lumotlar (Big Data), prognozli boshqaruv (PHM) va kengaytirilgan haqiqat (augmented reality) texnologiyalari yotadi, ular inson omili bilan bog'liq xatoliklarni bartaraf etishga va poyezdlar harakatining xavfsizligini ta'minlashga imkon beradi.

Quruqlik, havo va suv transporti xavfsizligi bilan Transport vazirligi shug'ullansa, temir yo'l transporti xavfsizligi bilan Temir yo'llar vazirligi shug'ullanadi. Transport xavfsizligi uchun mas'ul bo'lgan huquqni muhofaza qiluvchi organlar ikki tomonlama bo'ysunuvga ega - ya'ni Jamoat xavfsizligi vazirligi va Transport vazirligiga bir vaqtning o'zida bo'ysunadi. Jamoat xavfsizligi vazirligi tizimida Temir yo'llari akademiyasi tashkil etilgan [15].

Xalq jamoat xavfsizligi politsiyasining alohida funksiyasi "transportda xavfsizlikni ta'minlash, transportda tartibni saqlash"dan iboratdir (Xalq politsiyasi to'g'risidagi Qonunning 6-moddasi. Politsiyadan tashqari, temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlashni temir yo'l qo'riqlash xizmati va xavfsizlik xizmati ham amalga oshiradi. Temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlashda, xavfsizlikni ta'minlash choralari bo'yicha tadqiqot olib boradigan hamda politsiya bilan hamkorlikda jamoat joylarini patrullik qiluvchi jamiyat vakillaridan iborat konsalting xizmatlari ham ishtirok etadi [12].

Rossiyada temir yo'llar dunyoda hajmi bo'yicha ikkinchi o'rinda turuvchi transport tizimi bo'lib, temir yo'l tarmoqlarining umumiy uzunligi jihatidan faqat AQShdan keyin turadi. Elektrlashtirilgan magistrallar uzunligi bo'yicha Rossiya temir yo'llari dunyoda birinchi o'rinda turadi. Rossiya Federatsiyasi hozirgi vaqtda dunyo temir yo'llarining umumiy yuk aylanmasining 20 foizidan ortig'ini va yo'lovchi aylanmasining 10 foizini amalga oshirmoqda. Bu yerda Transport strategiyasi, "emir yo'l transporti va Transport xavfsizligi to'g'risidagi qonunlar qabul qilingan.

"Transportda aholining xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kompleks dastur" doirasida temir yo'l transporti obyektlarida transport xavfsizligini ta'minlashning quyidagi vositalari va tizimlari

o'rnatilgan: statsionar va qo'l metallodetektorlari, radiatsion nazorat apparaturalari, yo'lovchilarni shaxsiy tekshirish uchun statsionar rentgen skanerlash uskunalari, bagajni tekshirish uchun konveyer turidagi statsionar rentgen tekshiruv uskunalari, ko'chma rentgen-televidenie majmualari, portlashdan himoya qiluvchi konteynerlar, portlovchi moddalar bug'larini aniqlovchi ko'chma detektorlar, tezkor belgilangan neytronlar asosida ishlovchi portlovchi moddalarni aniqlash uchun ko'chma majmualar, portlovchi qurilmalarni masofadan boshqarish radiochiziqlarini bostirish tizimlari [2].

Rossiya amaliyoti shuni ko'rsatadiki, hal etiladigan vazifalarning xarakteri, bajariladigan funksiyalar hajmi va bevosita faoliyat jihatidan transportda ma'muriy-huquqiy nazoratning asosiy subyekti politsiya hisoblanadi. Bu esa temir yo'l transportida jamoat xavfsizligi maxsus chiziqli ichki ishlar organlari (transport politsiyasi [4]) faoliyatiga bevosita bog'liq ekanligini anglatadi. Temir yo'l transporti idoraviy qo'riqlash xizmati xodimlari va transport politsiyasi xodimlaridan iborat qo'shma ixtisoslashtirilgan guruhlar faoliyati amaliyoti rivojlangan.

Dunyodagi eng katta temir yo'l tarmoqlari uzunligiga ega davlat - **Amerika Qo'shma Shtatlari** bo'lib, temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi ularning tajribasi alohida qiziqish uyg'otadi. Bu yerda quyidagi qonunlar amal qiladi: milliy xavfsizlik to'g'risida ("Homeland Security Act of 2002"), aviatsiya va transport xavfsizligi to'g'risida ("Aviation and Transportation Security Act"), temir yo'l yo'lovchi tashish xizmati to'g'risida ("Rail Passenger Service Act of 1970" [2]), "Amtrak temir yo'l politsiyasi to'g'risida"gi" va boshqa qonunlar. Temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlashni bir nechta subyektlar amalga oshiradi: Amtrak politsiya departamenti (The Amtrak Police Department), transport kompaniyalari politsiya tuzilmalari va boshqalar. Masalan, BNSF politsiya departamenti (BNSF Police Department) BNS temir yo'l korporatsiyasining huquqni muhofaza qiluvchi organi sifatida xavfsizlikni ta'minlaydi [10].

Shuningdek, temir yo'l transportida xavfsizlikni federal organlar — Transport xavfsizligi ma'muriyati (Transportation Security Administration) ta'minlaydi, u bilan ixtisoslashgan politsiya xizmatlari yaqindan hamkorlik qiladi. Avval Transport vazirligi tarkibida faoliyat yuritgan Transport xavfsizligi ma'muriyati 2003-yilda federal Ichki xavfsizlik vazirligi tarkibiga o'tkazilgan. Uning xodimlari yo'lovchilar va bagajni ko'zdan kechirish, taqiqlangan buyumlar va moddalarni olib o'tayotgan yo'lovchilarni ushlab vakolatiga ega. Uning tarkibida transportda xavfsizlikni ta'minlashning eng so'nggi usullari va texnologiyalaridan foydalanadigan maxsus bo'linma - Innovation Task Force mavjud [12].

Temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlash maqsadida yo'lovchilar harakatini doimiy ravishda kuzatib boruvchi va videotasvirga oluvchi kompleks tizim joriy etilgan. Axborot-tahlil markazi tashkil etilgan hamda temir yo'l transporti obyektlarida ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashni, shuningdek transportdagi xavfsizlik tahdidlarini oldindan bashorat qilishni amalga oshiruvchi yagona xavfsizlikni ta'minlash tizimi joriy etilgan.

Shunday qilib, AQShda temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimi zarur choralarni tezkor va samarali qabul qilish imkonini beruvchi tegishli vakolatlarga, vositalarga, resurslarga va texnologiyalarga ega bo'lgan bir qator organlar va xizmatlarni o'z ichiga oladi.

Kanadada transport ustidan umumiy nazorat Transport vazirligi tomonidan amalga oshiriladi, xavfsizlikni monitoring qilish va ta'minlash esa Transport xavfsizligi agentligi zimmasiga yuklatilgan. Bu yerda transport to'g'risidagi, temir yo'l xavfsizligi to'g'risidagi, xavfli yuklarni tashish to'g'risidagi va boshqa tegishli qonunlar amal qiladi. Metropolitan tizimida NextivaTransit deb nomlangan eng yangi tarmoq videokuzatuv tizimi o'rnatilgan bo'lib, u integratsiyalashgan ssenariylar asosida potensial xavf

tug'diruvchi holatlarni aniqlaydi. Favqulodda holat aniqlanganda qo'riqlash xizmatiga darhol signal yuboriladi va ogohlantirish tizimi avtomatik tarzda ishga tushadi. Shu tizim real vaqt rejimida poyezd mashinistlarining sog'lig'i holatini ham kuzatadi. Qo'riqlash tizimiga qo'shimcha tarzda Clear-Use qurilmasi joriy etilgan bo'lib, u portlovchi moddalar va radioaktiv elementlarni aniqlash imkoniga ega. Detektorlar chipta sotish avtomatlariga o'rnatilgan [6].

Buyuk Britaniyada temir yo'l transporti xavfsizligi uchun quyidagi tashkilotlar javobgardir: Transport bo'yicha Davlat kotibiyati, ORR (Office of Rail Regulation), infratuzilmani boshqaruvchi kompaniya Network Rail, hamda RSSB (Rail Safety and Standards Board) - Temir yo'l xavfsizligi va standartlari assotsiatsiyasi. Ularning barchasi Safety Regulations (Xavfsizlik qoidalari majmuasi) doirasida faoliyat yuritadi va o'z hisobotlarini Transport bo'yicha Davlat kotibiyatiga taqdim etadi. Network Rail transport departamenti tarkibidagi davlat organi sifatida temir yo'l infratuzilmasini (yo'llar, stansiyalar, depolar va boshqalar) boshqaradi, ikki yillik "temir yo'llarda xavfsizlik rejasi"ni ishlab chiqadi hamda temir yo'llarda xavfsizlik darajasini saqlash bo'yicha usullar va choralarni belgilaydi [2]. Temir yo'llarda xavfsizlikni ta'minlashning yetakchi subyekti Britaniya transport politsiyasi (British Transport Police) hisoblanadi. U uch pog'onali tuzilishga ega (konstebllar, maxsus konstebllar va PCSO xodimlari) hamda Transport vazirligiga bo'ysunadi. Mazkur xizmat tasarrufida aeroportlar, shahar transporti (jumladan, metropoliten) hamda temir yo'l transporti mavjud. Temir yo'llarda jamoat xavfsizligini ta'minlash tashuvchilar-operatorlar bilan tuziladigan shartnoma asosida amalga oshiriladi, bunda bunday shartnomaning mavjudligi temir yo'l transporti faoliyatini yuritish uchun majburiy shart hisoblanadi.

Singapur tajribasi shuni ko'rsatadiki, qonunchilik bilan transportda xavfsizlikni ta'minlashning markazlashtirilgan tizimi belgilangan bo'lib, u 1996-yil 30-apreldagi "Land Transport Authority of Singapore Act" — Singapur Quruqlik transporti xizmati to'g'risidagi Aktga muvofiq Quruqlik transporti xizmati tomonidan amalga oshiriladi. Jamoat xavfsizligini ta'minlash samaradorligi asosan jinoyatlarning oldini olish bo'yicha politsiyaning doimiy sa'y-harakatlariga, politsiya xodimlarining joylardagi mavjudligiga va jinoyatchilikni jilovlash uchun texnologiyalardan foydalanishga asoslanadi [8].

Yevropa Ittifoqida a'zo davlatlarning temir yo'llarda harakat xavfsizligini ta'minlash masalalarini tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar Yevropa Parlamenti va Yevropa Kengashining 2004/49/EC-sonli "Hamjamiyat temir yo'llarining xavfsizligi to'g'risida"gi Direktivasi hamda 2016-yil 11-maydagi 2016/798-sonli "Temir yo'l tizimi xavfsizligi to'g'risida"gi Yevropa Parlamenti va Kengashining Qarori hisoblanadi. Ushbu hujjatlar temir yo'l transporti subyektlarining javobgarligiga doir yagona normalarni belgilaydi, ular quyidagilarni ta'minlaydi: a) temir yo'l transportida xavfsizlikni, baxtsiz hodisalarning oldini olishni (II-bob 4-modda, 1-qism, "a" band); b) xavfsiz faoliyat yuritish va nazorat uchun javobgarlikni (II-bob 4-modda, 1-qism, "d" band) [2].

Germaniyada Transport vazirligi faoliyat yuritadi, uning tarkibida transport sohasida davlat siyosatini ishlab chiqadigan, federal temir yo'lni boshqaradigan va transport xavfsizligini nazorat qiladigan temir yo'l transporti boshqarmasi mavjud. **Daniyada** temir yo'llar avtomatik poyezd boshqaruv tizimlari bilan jihozlangan bo'lib, uchuvchisiz poyezdlar joriy etilgan.

Fransiyada hududlarni jihozlash, qurilish, fuqarolik qurilishi va transport bo'yicha vazirlik faoliyat yuritadi, uning tarkibida transport boshqarmasi mavjud. Shuningdek, Transport bo'yicha Oliy kengash hamda Milliy temir yo'llar jamiyati kabi tuzilmalar ham mavjud. "Davlatning hududiy tashkil etilishi, mahalliy demokratiya, mahalliy hamkorlikni rivojlantirish va hududlar o'rtasidagi markazlashmagan

o'zaro hamkorlik to'g'risida"gi Qonun amal qiladi, u transport sohasida markaziy davlat organlarining vakolatlarini belgilaydi hamda transport xavfsizligini ta'minlash tartibini aniqlab beradi [9].

Niderlandiyada temir yo'l transporti hukumat agentligi ProRail boshqaruvida bo'lib, huquqiy tartibga solish "Temir yo'llar to'g'risida"gi Qonun asosida amalga oshiriladi. Temir yo'l transportida xavfsizlikni ta'minlash maqsadlari quyidagi mezonlarga asoslanadi: a) xavfning ro'yobga chiqish ehtimoli (hodisalar, o'limlar, jarohatlar va zararning ehtimollik darajasini aniqlash); b) xavfning ro'yobga chiqish ta'siri (jinoyatlar soni va zararning darajasini aniqlash); v) xavfni kamaytirish imkoniyati (yo'lovchilar va transport xodimlarining birgalikdagi sa'y-harakatlari orqali xavfsizlikni oshirish, transport infratuzilmasiga investitsiyalar kiritish [4].

Transport, jamoat ishlari va suv resurslari vaziri Niderlandiya parlamentining Vakillar palatasiga transport xavfsizligining holati va rivojlanish tendensiyalari to'g'risida hisobot taqdim etadi. Temir yo'l transportida xavfsizlikni boshqarish tizimi tekshiruv natijalariga ko'ra xavfsizlik sertifikatlarini beruvchi Transport, jamoat ishlari va suv resurslari inspeksiyasi faoliyat yuritadi. Temir yo'llarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha Direktiva, temir yo'l qonunchiligini baholash hisobotini, Kompleks xavfsizlik rejasini, shuningdek Normenkader Veilig Werken (xavfsiz mehnat standartlari)ni nazarda tutadi. Temir yo'l transportida xavfsizlikni ta'minlashda SPAD (Yer usti jamoat transporti bo'yicha komissiya) muhim rol o'ynaydi, shuningdek tashqi xavfsizlikni ta'minlash masalalari bo'yicha markaziy hukumat, tashuvchilar va yuk jo'natuvchilar o'rtasidagi bitimlar ham katta ahamiyat kasb etadi.

Transport xavfsizligini ta'minlash masalalariga **Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi** (MDH) doirasida katta e'tibor qaratilmoqda. Shu tariqa, MDHga a'zo davlatlarning temir yo'l transporti bo'yicha kengashi faoliyat yuritadi, shuningdek transport xavfsizligini ta'minlash sohasida MDHga a'zo davlatlar o'rtasida axborot almashinuvi to'g'risidagi bitim (2014-yil) hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar hududlarida transport xavfsizligini ta'minlash strategiyasi imzolangan.

Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida 2014-yil 29-maydagi Shartnomaning 86-moddasiga muvofiq raqobat, ochiqlik, xavfsizlik, ishonchlilik, qulaylik va ekologiklik tamoyillariga asoslangan muvofiqlashtirilgan transport siyosati amalga oshiriladi. Ushbu siyosatning vazifalaridan biri transportda xavfsizlikni ta'minlashdir. 2016-yil 29-martdagi YIK kollegiyasi tavsiyasi №4 "Temir yo'l transportida xavfsizlik sertifikatiga qo'yiladigan talablar va uni berish tartibi bo'yicha umumiy yondashuvlar to'g'risida" qabul qilingan. Ushbu hujjatga muvofiq, xavfsizlikni boshqarish tizimi dolzarb holatda saqlanadi va doimiy ravishda takomillashtirib boriladi, tegishli tartib-taomillar, jumladan, xavflarni boshqarish tartib-taomillari joriy etiladi, xavfsizlikni ta'minlash masalalari bo'yicha bo'linmalar va mansabdor shaxslarning funksiyalari, vakolatlari va javobgarligi belgilanadi, xavfsizlikni ta'minlash uchun zarur resurslar aniqlanadi hamda monitoring va tahlil ishlari olib boriladi.

Xalqaro normalarni implementatsiya qilish va temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlashning qonunchilik jihatidan tartibga solinishida xorijiy tajribani inobatga olish quyidagilarga erishish imkonini beradi:

- transportni huquqiy tartibga solish sohasida qonunchilikni unifikatsiya qilish;
- transportda jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi qonunchilikni uyg'unlashtirish (garmonizatsiya qilish);
- temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlashda jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha huquqiy choralarni muvofiqlashtirish;
- transport infratuzilmasi faoliyatining xavfsizligini hamda temir yo'l tashishlarining xavfsizligini ta'minlash;

- temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ma'muriy-huquqiy choralarni qo'llash sifatini va samaradorligini oshirish va boshqalar.

O'zbekiston qonunchiligining transport, shu jumladan temir yo'l transportida xavfsizlik masalalari bo'yicha xalqaro hujjatlarga to'liq mos emasligiga e'tibor qaratish lozim. Tahlil shuni ko'rsatadiki, milliy transport qonunchiligining kamchiliklaridan biri temir yo'l transporti sohasidagi huquqbuzarliklarning sabablarini bartaraf etish choralari yetarlicha va to'liq mustahkamlanmaganligi, ushbu sohada xavf-xatarlarni bashorat qilish va ularni minimallashtirish tizimining zaifligidir. Huquqni qo'llash amaliyoti tahlili natijalari temir yo'l transportida huquqbuzarliklarning oldini olishning huquqiy mexanizmi yetarli darajada ishlab chiqilmaganligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, o'tkazilgan tahlildan ko'rinadiki, aksariyat mamlakatlarda transport xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ixtisoslashtirilgan organlar faoliyat yuritadi, transport xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Shu bilan birga, jamoat xavfsizligini ta'minlash, odamlarni himoya qilish va yuklarning saqlanishini kafolatlashga xizmat qiluvchi zamonaviy raqamli texnologiyalar va tizimlar keng qo'llaniladi. Ko'plab mamlakatlar hukumatlari xavfsizlik masalalariga jiddiy e'tibor qaratadi hamda maxsus jihozlarni saqlash va ta'minlash uchun mablag' ajratadi.

Temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha xorijiy tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'plab mamlakatlarda ushbu sohada tizimli boshqaruv amalga oshiriladi, keng normativ-huquqiy asosda xavfsizlik tizimlari shakllantiriladi. Shu bilan birga, xavfsizlikni ta'minlashda kompleks yondashuv qo'llaniladi, raqamli texnologiyalar keng qo'llaniladi, temir yo'l transporti obyektlarida huquq-tartibot holati bo'yicha doimiy tahlil va nazorat olib boriladi. Ilg'or xorijiy tajribani milliy amaliyotda qo'llash zarur, jamoat xavfsizligini ta'minlashning choralarni, shakllarini va vositalarini takomillashtirish lozim.

Shunday qilib, xorijiy tajribani o'rganish shuni ko'rsatadiki, temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlash muammolari maxsus qonunlar, maqsadli dasturlar va chora-tadbirlar qabul qilinishi orqali hal etiladi. Shu bilan birga, ko'plab mamlakatlarning qonunchiligi xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi munosabatlarni batafsil huquqiy tartibga solishga qaratilgan. Xavfsizlikni ta'minlash subyektlari va ularning faoliyat yuritish tartibi aniq belgilangan, xavfsizlikni ta'minlash ishtirokchilarining o'zaro hamkorlik mexanizmi, ularning faoliyatini nazorat qilish shakllari va tartib-taomillari o'rnatilgan.

Ko'plab mamlakatlar uchun temir yo'l transporti obyektlarida jamoat xavfsizligi holatini kompleks tahlil qilish, monitoring olib borish va baholash xosdir, shuningdek, ushbu sohada zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalariga jiddiy e'tibor qaratiladi. Xorijiy qonunchilikning o'ziga xos jihati sifatida temir yo'l transportida jamoat xavfsizligi sohasidagi munosabatlarning batafsil tartibga solinishini ko'rsatish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son «O'zbekiston – 2030 strategiyasi tugrisida»gi qarori / Qonun hujjatlari malumotlari milliy bazasi, 2023 yil 12 sentyabr, 06/23/158/0694; 29 dekabr 2023 yil, 06/23/214/0984-son.
2. United Nations Economic Commission for Europe (UNECE). Transport Safety and Security Legal Frameworks. Geneva: UNECE, 2020.
3. International Union of Railways (UIC). Railway Transport Security Guidelines. Paris: UIC, 2021.
4. Convention concerning International Carriage by Rail (COTIF). Berne: OTIF, 2006.

5. Mishina, N.V. Railway Safety: Foreign Experience and National Adaptation. Moscow: Transport Publishing, 2019.
6. U.S. Department of Homeland Security. Aviation and Transportation Security Acts and Regulations. Washington D.C., 2022.
7. Amtrak Police Department. Annual Report on Railway Public Safety. Washington D.C., 2021.
8. Land Transport Authority of Singapore. Singapore Land Transport Authority Act and Safety Regulations. Singapore, 2020.
9. European Parliament & Council. Directive 2004/49/EC on the Safety of the Community Railway System. Brussels, 2004.
10. European Parliament & Council. Regulation 2016/798 on Railway System Safety. Brussels, 2016.
11. Network Rail, RSSB. Rail Safety and Standards Board Guidelines. London: RSSB, 2021.
12. ProRail, Netherlands. Railway Safety Management and Legal Regulations. Utrecht: ProRail, 2021.
13. Federal Ministry of Transport, Germany. Railway Transport Safety and Control Systems. Berlin, 2020.
14. Transport Security Administration (TSA), USA. Innovation Task Force Reports on Transport Safety Technologies. Washington D.C., 2021.
15. Commonwealth of Independent States (CIS). Agreement on Information Exchange for Transport Safety. Minsk, 2014.
16. Eurasian Economic Union. Transport Safety and Coordination Policy. Moscow, 2016.
17. Xolmyurodova, D., & Karimov, A. Railway Transport Safety: Comparative Analysis of Foreign Practices. Tashkent: National University Press, 2023.